

CHALA TUG'ILGAN CHAQALOQLARNING KLINIK BELGILARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI



A.Sotvoldiyev

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

Bola vazni 1500 g dan kam bo'lib tug'lsa - chuqur chalalik hisoblanadi. Chala tug'ilishga asosiy 3- gurux omil sababchi bo'ladi:

1. Ijtimoiy - iqtisodiy va demografik omillar (oilalar daromati va yashash sharoiti, homilador ayolning ovqatlanishi, ish joyi, ma'lumoti, tibbiy xizmat ko'rsatilish darajasi, oilaviy ahvoli va boshqalar)

2. Iqtisodiy-biologik jihatdan (otalar-onalar yoshi, nechanchi homiladorlik, farzandlar orasidagi interval, ko'p homilalik, avvalgi homiladorlik natijasi) 3. Klinik-infeksion va noinfeksion kasalliklar - onaning yuqumli va yuqumsiz kasalliklari, homiladorlik toksikozlari, onaning abort vaqtidagi jarohatlari, ona va homilaning rezus omili mos kelmasligi, onaning endokrin kasalliklari, ayolning jinsiy organlari nuqsonlari, bolaning xromosom kasalliklari, chekish, alkogol, narkomaniya, ayrim dori vositalarini qabul qilib yurishi).

Chala tug'ilgan bolalarning AFX Chala tug'ilgan bolalarning morfologik belgilari:

1. Tananing noproportionaligi: oyoqlar va bo'yni kalta
2. Chala tug'ilgan bolalarning boshi tanasining 1/3 qismini tashkil etadi.
3. Bosh suyagining miya qismi yuz qismidan kattaroq
4. Miya suyagi yumshoq, liqildoqlari ochiq, tirnoqlari kalta, tuxum yorqoqqa tushmagan, katta lablar kichik lablarni yopib turmaydi.
5. Quloq suprasining tog'ay qismi yaxshi rivojlanmagan va kallaga yopishib turadi.
6. Chaqaloq yelkasi, orqasi, peshona, yonoqlari va son qismlari terisi ko'p miqdorda mayin lanugo bilan qoplangan, terisi yupqa, yog' qavatlarini yaxshi rivojlanmagan, eritemalari aniq bilinadi.



Chalalikning funksional belgilari :chala tug'ilgan chaqaloqlar uchun barcha a'zolarning yetilmaganligi va chalalik darajasiga bog'lik bo'ladi. Nevrologik belgilar: mushaklar gipotoniyasi, fiziologik reflekslar va harakat aktivligi sust, termoregulyasiyaning takomillashmaganligi, kuchsiz yig'i hos. Kuchli bezovtalik, doimiy bo'lmagan oyoq-qo'llarining tremori kuzatiladi. Nafas olish sistemasi. Chala tug'ilgan chaqaloqning nafas olishi muddatida tug'ilgan bolanikiga qaraganda ko'pligi va labilligi, nafas harakatlarining yuzakiligi, nafas chuqurligining notekisligi, davomiyligi turlicha bo'lgan respirator tanafuslar paydo bo'lishi bilan farq qiladi. Apnoe chastotasi (nafasning 10 soniya va ko'proq to'xtashi) o'ta chala tug'ilgan bolalarda maksimal bo'ladi. Sog'lom chala tug'ilgan chaqaloqlarda uyqu yoki tinch paytida quyidagi nafas turlari kuzatilishi mumkin: Chuqur chala tug'ilgan bolalar uchun talvasali nafas harakatlar xos. Nafas chastotasi gestasion yoshga bog'liq holda bir muncha o'zgarib turadi, nafas olish chastotasi o'rta xisobda minutiga 36 - 82ni tashkil qiladi va bu chalalik darajalariga qarab o'zgarib turadi: chaqaloqlik davrida yurak qisqarishlar soni 140-160 minutiga bo'lsa, tana vazni kam bo'lgan chaqaloqlarda esa nafas chastotasi yuqori bo'ladi.



Uzoq vaqtgacha nafas to'xtashi kuzatilganda asfiksiya rivojlanishi mumkin. Arterial bosim 60-70 mm.rt.atrofida bo'ladi. Chala tug'ilgan chaqaloqlarda so'lak ajralishi past bo'ladi. Oshqozon shirasining hajmi etuk tug'ilgan chaqaloqlarnikiga qaraganda 3-martagacha kam, oshqozon shirasining pH 4,4-6,6, erkin xlorid kislota darajasi 0,3 ichaklarning ferment ajratish vazifasi aktivligi juda sust bo'ladi. Chala tug'ilgan chaqaloqlarda termoregulyasiya to'lik yetilmaganligi sababli bolalar tez sovub ketishi va tez qizib ketishi mumkin. So'rish va yutish reflekslari kuchsiz rivojlangan, ayrim hollarda bu jarayonlarning koordinasiyasi buzilishi kuzatiladi. Qayt qilish, o'qchish, meteorizm va qabziyatga moyil bo'lishadi. Yo'tal refleksining bo'lmasligi ovqat aspirasiyasiga olib keladi. Immun tizimning yetilmaganligi sababli chala tug'ilgan chaqaloqlarda yuqumli kasalliklarga moyillik yuqori bo'ladi. Qon tomirlarning o'tkazuvchanligi va sinuvchanligini yuqoriligi sabab miya qon aylanishining buzilishlari va qon quyilishlar tezda yuzaga keladi. Chala tug'ilgan chaqaloqlarda tranzitor fiziologik holatlar o'ziga xos kechadi; fiziologik eritema yaqqol va uzoq vaqt davom etadi, kam miqdorda

"Kam vaznli chaqaloqlar "tug'ilishiga asosiy sabablar:

- 1.Homiladorlik davridagi intoksikasiyalar: chekish, spirtli ichimliklar, narkotiklar. 2.Anemiya, onalarni homiladorlik davrida noto'g'ri ovqatlanishi.
3. Infeksiyalar: - bakterial: B guruhiga mansub streptakokklar, ichak tayoqchasi, listeriya.

3 - viruslar: gripp, qizamiq, sitomegaloviruslar. - parazitlar: bezgak, toksoplazmoz. 4. Gipertonik buzilishlar, boshqarilmaydigan gestoqlar

5. Ko'p homilali onalar: egizaklar (ikki, uch), bachadon anomaliyasi va homila anomaliyalari kuzatilsa.

6. Amnion pardasini erta yirtilishi. "Kam vaznli chaqaloqlar" uchun xarakterli belgilar, ayniqsa muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarda: -kichik o'lchamlar - tanasining uzunligi, me'daning kichikligi. -yog', uglevod, temir, kalsiy va vitaminlar zaxirasining kamligi .

Kichik muddatdagi homilaga, yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun xavf omillari:

1. Tug'ilgandan keyingi respirator buzilishlar (asfiksiya, mekoniy bilan aspirasiya) 2. Gipotermiya

3. Gipoglikemiya

4. Ovqatlantirishdagi muammolar

5. Infeksiyalar 6. Tug'ma anomaliyalar

7. Polisitemiyalar "Kam vaznli" chaqaloq tug'ilishga tayyorgarliklar:

1. "Kam vaznli chaqaloq" tug'ilishi kutilayotganda tayyorgarlik: - tug'ruq xonada harorat 28° C bo'lishi kerak. Chaqaloq uchun issiq kiyimlarini, issiq yo'rgaklarni tayyorlash va xonada isituvchi vositalarni yoqish kerak. - Neonatologlar guruxi, reanimasion to'plam bilan birgalikda tug'ruq zalida bo'lishlari kerak (laringoskop va medikamentlar ham)

2. "Kam vaznli chaqaloqlar"ga oddiy normal tug'ilgan chaqaloqlarga nisbatan reanimasion chora - tadbirlarga muqtoj bo'ladilar va bunday chaqaloqlarni gipotermiya va infeksiyon kasalliklardan saqlash zarur. Muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarga yordam quyidagi bosqichlarda olib boriladi: Birinchi bosqich - tug'ruqxonada intensiv

parvarish va davo chorlari olib borilishi Ikkinchi bosqich - maxsus bo'limlarda parvarishni olib borish Uchinchi bosqich - oilaviy poliklinikasida doimo nazorat ostida bo'lishlari kerak. Birinchi bosqich maqsadi - chaqaloq hayotini saqlab qolish, zarur paytda intensiv davo terapiyasini olib borish, diqqat bilan parvarish va kuzatuvni o'z ichiga oladi. Tug'ilgandan 1- soatga yetmasdan chaqaloqni muddatiga yetmasdan tug'ilgan chaqaloqlar boks turidagi honaga yoki ahvoli og'ir bo'lsa ORIT bo'limlariga o'tkazilishi kerak. Uyiga tana vazni 2000 grdan ortiq, sog'lom bo'lgan chaqaloqlar yuboriladi, qolgan muddatiga yetmay tug'ilgan chaqaloqla maxsus bo'limga ikkinchi bosqich bo'yicha parvarish qilinish uchun o'tkaziladi. Ikkinchi bosqichning maqsadi - reabilitasion - davolash. Gipoksiya, miyada qon aylanishi buzilishi, sariqlik, pnevmoniyani bartaraf etish va anemiya, raxit, gipotrofiyani oldini olishga qaratilgan. MNS buzilishi kuzatilgan chaqaloqlarda asosiy reabilitasion vositalari DFK, massaj va suvdagi mashqlar o'tkaziladi. Ikkinchi bosqichdagi chaqaloqlarni bo'limdan chiqarish

uchun individual ko'rsatmalar: kasalliklar yo'qligi, dastlabki tana vaznini tiklanishi va ortishi, gemoglobin miqdori normada bo'lishi lozim. Chaqaloq haqidagi ma'lumot mahalla shifokoriga yuboriladi. Parvarish xususiyatlari. Chaqaloq uchun qulay mikroklimatik sharoit yaratish - palata harorati 24-26° C, namlik 60% bo'lishi kerak. Juda erta muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlar yoki og'ir chala tug'ilgan chaqaloqlar kuvezlarda parvarish qilinishi kerak. Kuvezlarda xarorat 32-36°C, namlik dastlabki kunlarda 90%, keyinchalik 60-55% bo'lishi kerak. Chaqaloq tana haroratini 36,5-37 ° Cda ushlab turish va chaqaloqni qizib ketishdan va sovuq qotishdan saqlash zarur. Oksigenasiya darajasi individual tanlanadi. Kuvezlar dezinfeksiyasi va almashtirish har 2-3 kunda o'tkaziladi. Krovatchalarga o'tkazish uchun chaqaloqda nafas yetishmovchiligi bo'lmasligi, tana harakati doimo bir hil normada bo'lishi, minimal oksigenasiyaga ko'nikishi kerak bo'ladi. Isitish uchun maxsus qizdiruvchi krovatchalar, termomatras, termosqlovchi yo'rgak, grelka bo'lishi kerak. Muolajalar uchun isituvchi vositasi bo'lgan yo'rgaklovchi stollar, nur bilan isituvchi lampalar bo'lishi lozim. Ximoyalovchi engiga ega bo'lgan yo'rgaklar kiydiriladi. Asosiy e'tiborni chaqaloqlarni ahvoliga qaratish kerak, tana harakati va namligini, kuvez ishlash parametrlarini va ishlashini, sanitar - gigienik ishlarini qattiq nazorat ostida ushlab va epidemiyaga qarshi rejimlarni boshqarib va kuzatib turish kerak. Ona shaxsiy gigienaga rioya qilishi va bola parvarishida sanitariya qoidalariga e'tibor berishi zarur. Chala tug'ilgan chaqaloqlarni ovqatlantirishni o'ziga xos xususiyatlari bor. Bular chaqaloqning oziq maxsulotlariga talabini kuchliligi, oshqozonchaktizimining yetarli darajada rivojlanmaganligiga asoslangan. Ko'krak suti homila muddatiga qarab tarkibi o'zgaradi. Yangi tug'ilgan chaqaloq uchun ko'krak suti kam bo'lsa qabul qilishi yaxshi bo'ladi.

Ko'krak sutini ba'zan sog'ib turilishi tavsiya etiladi. Ko'krak suti umuman bo'lmaganda chala tug'ilgan chaqaloqlar uchun sun'iy aralashmalar beriladi. Chaqaloq holatiga qarab ko'krak bilan, qoshiq yoki zond orqali ovqatlantiriladi. Ovqatlanish soni oziqlantirish turiga, chaqaloqning oshqozonida sutni ushlab turish xususiyatiga va so'rish faolligiga bog'liq. "Kam vaznli chaqaloqlar" ni parvarishidagi qiyinchiliklar: - 2,500 gr bo'lgan chaqaloqlarda o'lish va kasallik xavfi nisbatan yuqori. - 2,500 grdan yuqori tug'ilgan chaqaloqlar nisbatan ko'proq parvarishga muxtoj.

1. Chaqaloq issiq kiyingan bo'lishi kerak (shapka, paypoq, issiq kiyimlar) lekin qattiq yo'rgaklamaslik kerak. Qattiq yo'rgaklansa chaqaloq sovuq qotishi mumkin.

"Kam vaznli chaqaloqlarni" cho'miltirish mumkin emas. Zarurat tug'ilgandagina cho'miltirish mumkin.

2. Gipoglikemiya profilaktikasi va kaloriyaga bo'lgan talabiga ko'ra chaqaloqni erta va tez-tez ko'krak suti bilan boqishning adekvatligini ta'minlash kerak.- onaga har 2-3 soatda bolani ko'krak suti bilan emizishni

tushuntirish.

- har kungi ko'krak suti bilan boqishni baholab borish kerak: ko'krakni to'g'ri berayotganligi, so'rish tezligini, kunlik ko'krak bilan boqishning sonini, bolaning ona sutiga konikayotganligini.

- har kuni chaqaloq vaznini ulchab kurish va dinamikasini baholash.

- alternativ ovqatlantirishda chaqaloqning kunlik talabini baholash.

3. Issiq palatadagi chaqaloqning kunlik monitoringi-chaqaloq harorati va og'irligini o'lchash va yozib olish nafas olishini baholash uchun bu holatda chaqaloq tinch holatda va yig'lamagan, baqirmayotgan bo'lishi kerak.

1. chuqur nafas bor yo'qligini aniqlash

2. bir daqiqadagi nafas olishlar sonini hisoblash. Nafas olish chastotasi

30 > yuqori yoki > 60 kam bo'lishini aniqlash.

3. ko'krak qafasini ko'tarilishi va kengayishi bor, yo'qligini aniqlash

4. burun qanotlarining kerilishi bor, yukligini

5. sariqlik bor, yo'qligini aniqlab borish kerak.

4. Universal ehtiyotlik choralari va gigienik jarayonlarni qo'llash

- Onaga kam vazn bilan tug'ilgan chaqaloq'ini o'zi kiyintirishini, yuvintirishi, haroratini o'lchashini ayting.

- Onaga qo'lini to'g'ri yuvish texnikasini o'rgating va uning bajarishini kuzating.

- Kindikni quruq holatda saqlang

- Invaziv tekshiruvlarni minimal darajada o'tkazing: qon olish. Agarda bu tekshiruvlar zarur bo'lsa, unda izlariga to'g'ri ishlov berish.

- Onaga bolasini ko'rishiga va parvarish qilishiga sharoit yaratish.

"Kam vaznli chaqaloq" da termoregulyasiya.

- kam vaznli chaqaloq tana yuzasining issiqlik chiqarib yuborish xususiyati yuqori bo'lganligi sababli

tez issiqlik yoqotadi (kattalardan 3 barobar ko'p)

- kam vaznli bolada termoregulyasiya yaxshi rivojlanmaganligi va yog' va glikogen zahirasi kam bo'lganligi sababli tana haroratini bir xil ushlab turishga qiynaladi.

- bosh terisi orqali issiqlik yoqotish 50% ni tashkil qiladi. Shuning uchun chaqaloqlarga doimo bosh kiyim kiydirilishi kerak.

Asosiy adabiyotlar:

1. Q. Inomov, M. G'aniyeva — Pediatriyada hamshiralik ishi. Toshkent ILM-ZIYO 2017y.

2. M. F. Ziyaeva. Z. O. Rizaeva. — Bolalarda xamshiralik parvarishi. Toshkent, — Fan va texnologiya 2012 yil.

3. M.A. Fozilbekova, X.S. Zaynitdinova —Terapiya va ginekologiyada hamshiralik ishi
4. L.N. Yasharova, F.T. Asqarova —Ayollarda parvarish xususiyati Toshkent – —ILM ZIYO — 2014 yil.
5. Ya.N. Allayorov —Terapiya va ginekologiya Toshkent, 2017.
6. Ya.N. Allayorov —Terapiya Toshkent, 2008.

Internet saytlari

1. ziyonet.uz
2. med.uz
3. minzdrav.uz
4. tma.uz
5. tashpmi.uz